



## **FEATURES OF THE POLITICAL AND ADMINISTRATIVE SYSTEM OF THE SHOGUNATE DURING THE TOKUGAWA DYNASTY'S RULE IN JAPAN**

**Azizbek Kholliev**

*Doctor of historical sciences, acting professor  
National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Japan, shogunate, Tokugawa, political-administrative system, succession order, daimyo, central and local authorities, imperial house, bakuhans.

**Received:** 13.03.25

**Accepted:** 15.03.25

**Published:** 17.03.25

**Abstract:** This article provides a detailed examination of the political and administrative system of the shogunate during the historical period of the Tokugawa dynasty, which played a crucial role in Japan's development. The main focus is on analyzing the succession order for the shogun title, the state of the socio-political structure, and the historical evolution of central and local governing bodies within the administrative system. The relationship between the shoguns and the imperial household is also elucidated.

## **YAPONIYADA TOKUGAVA SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRIDA SYOGUNLIK SIYOSIY-MA'MURIY TIZIMINING XUSUSIYATLARI**

**Azizbek Xolliyev**

*Tarix fanlari doktori, professor v.b.  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Yaponiya, syogunat, Tokugava, siyoyosiy-ma'muriy tizim, vorislik tartibi, daymyo, markaziy va mahalliy hokimiyat idoralari, imperator xonadoni, bakuxan.

**Annotatsiya:** Taqdim etilgan maqolada Yaponiya taraqqiyotida muhim o'rinn egallagan Tokugava sulolasi hukmronligi davrining tarixiy sharoitlarida syogunlik siyosiy-ma'muriy tizimining o'ziga xos xususiyatlari atroflichcha ko'rib qiqilgan. Asosiy e'tibor syogun unvonining vorislik tartibi, ijtimoiy-siyosiy tuzilmaning holati, ma'muriy tizim tarkibidagi markaziy va mahalliy hokimiyat idoralarinig tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Syogunlar va

imperator xonadoni o‘rtasidagi munosabatlar  
ham yoritib berilgan.

## ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИКО-АДМИНИСТРАТИВНОЙ СИСТЕМЫ СЁГУНАТА В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ДИНАСТИИ ТОКУГАВА В ЯПОНИИ

**Азизбек Холлиев**

*Доктор исторических наук, и. о. профессора*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Япония, сёгунат, Токугава, политico-административная система, порядок наследования, даймё, центральные и местные органы власти, императорский дом, бакухан.

**Аннотация:** В представленной статье подробно рассматриваются особенности политico-административной системы сёгуната в исторических условиях периода правления династии Токугава, сыгравшей важную роль в развитии Японии. Основное внимание уделяется анализу порядка наследования титула сёгуна, состояния общественно-политической структуры, исторической эволюции центральных и местных органов власти в рамках административной системы. Также освещается вопрос взаимоотношений между сёгунами и императорским домом.

Tokugava sulolasi vakillarining *syogunlik* siyosiy-ma’muriy tizimi ilgaridan mavjud bo‘lgan tarixiy an’analar hamda ular mamlakatni boshqargan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vogeliklarni inobatga olgan holda shakllantirilgan. Tokugava xonadonidan chiqqan *syogunlar* mamlakatni qariyb uch asr mobaynida boshqarganlar. Bu Yaponiya tarixida bir sulola vakillarining eng uzoq muddat davomida siyosiy hukmronlik qilgan davri bo‘ldi. Tuzumning bunday barqarorlik sababini Tokugava Ieyasu amalga oshirgan tadbirlarning puxta o‘ylanganligida, xususan, *syogun* unvonini meros qilish tartibini belgilashda ko‘rish mumkin.

“*Syogun*” atamasi XII asr oxirida mamlakatning oliy harbiy hukmdori ma’nosini anglatadigan bo‘ldi. O‘sha paytdan boshlab Yaponiyada Minamoto Yoritomo nomi bilan bog‘liq bo‘lgan harbiy boshqaru - *syogunlik* shakllandi. Tokugava syogunligi Yaponiya tarixidagi uchinchi *syogunlik* edi, biroq Tokugava Ieyasuning *syogun* sifatidagi mavqeい Minamoto va Asikaga xonadonlaridan chiqqan avvalgi syognarlarnikidan tubdan farq qilardi.

1605 yilda Tokugava Ieyasu o‘g‘li Xidetadaga “*syogun*” unvonini topshirdi va shu bilan bu lavozim bundan buyon Tokugava xonadoniga meros bo‘lib o‘tishini namoyon etdi. Shu bilan birga, u bir qator muammolarni hal qilishi lozim edi - farzandlaridan qaysi biri bu unvonni meros qilib olishi kerak, bir nechta o‘g‘illar orasidan merosxo‘rni qanday tanlash kerak, bunda nimaga tayanish lozim [1].

Buning sababi shundaki, o'sha paytda "*urushayotgan viloyatlar davri*" (*sengoku dziday*)ning shafqatsiz zamoni haqidagi xotiralar hali unutilmagan edi. Shu bois oilaviy meros masalasida eng qobiliyatli va shu vazifaga munosib o'g'ilga afzallik berish amaliyoti ustunlik qilardi.

Uchinchi o'g'li Xidetadaning *syogun* lavozimiga tanlanishi Ieyasu tomonidan puxta o'ylangan qadam edi. Xidetada o'g'illari ichida eng itoatkor va bo'ysunuvchisi, ayni paytda, eng zehnli edi. O'zining insoniy fazilatlariga ko'ra, u o'sha paytda Ieyasu uchun eng maqbul meroxo'r edi, chunki Ieyasu faqat rasman ishdan chetlashib, mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilishni davom ettirayotgan edi [2].

Biroq, meroxo'rni tanlashning bunday ixtiyoriy tamoyilida vaqt o'tishi bilan Tokugava xonadonini hokimiyat uchun ichki kurashga tortib ketishi mumkin bo'lган xavf yashiringan edi. Buning oqibatlarini oldindan aytib bo'lmasdi va *syogun* unvoni uchun sulola monopoliyasining yo'qolishiga olib kelishi mumkin edi.

Tokugava Ieyasu Xidetadaning o'g'illari orasida *syogun* unvonini meros qilish masalasini hal etishda bunday ehtimoliy xavfni hisobga oldi. Xidetadaning 3 o'g'li bor edi - kattasi Iemitsu, o'rtanchasi Tadanaga va kenjası Masayuki. Meros masalasi katta va o'rtancha aka-ukalar o'rtasida hal qilinishi kerak edi. Iemisu zaif, loqayd bola bo'lib o'sgan edi. Undan farqli o'laroq, Tadanaga rivojlangan bola edi, shuning uchun uning otasi ham, amaldorlar ham Tadanaganing 3-*syogun* bo'lishiga moil edilar [3].

Bu qaror haqida o'sha paytda Sumpuda istiqomat qilayotgan Ieyasuga xabar berishdi. Biroq u boshqacha fikrda edi. Uning fikricha, Tokugava oilasining barqarorligini quyidagi tamoyil ta'minlashi mumkin edi: syogun unvonini meros qilish masalasini hal etishda da'vogarning aqliy yoki jismoniy salohiyati emas, balki to'ng'ich o'g'ilning huquqi hal qiluvchi omil bo'lishi kerak edi, chunki u ukalariga nisbatan mutlaq hokimiyatga ega bo'lishi lozim edi. Ieyasu bu masalani Iemitsu foydasiga hal qildi.

Ieyasu o'z oilasidagi vorislik huquqi to'g'risidagi puxta o'ylanmagan qaror *daymyo* oilalaridagi aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatishi, bu esa, o'z navbatida, ular o'rtasida qurolli kurashning qayta boshlanishiga olib kelishi va shu bilan davlatdagagi barqarorlik va tinchlikni izdan chiqarishi mumkinligini yaxshi angardi.

Ieyasu o'rnatgan qat'iy qoidalar, garchi yaqin qarindoshlarga nisbatan qattiq choralar ko'rishni nazarda tutsa-da, davlatda tinchlik va tartibni saqlashga xizmat qildi.

Tokugava xonadonida qat'iy tartib mavjud edi: agar hukmron syogunning to'g'ridan-to'g'ri meroxo'ri bo'lmasa, qanday yo'l tutish kerakligi belgilangan edi. Asosiy nasl-nasabdan (*xonke*) tashqari Tokugava urug'inинг yon tarmoqlari (*impan*) ham mavjud edi. Bularga *gosanke* (Ieyasuning uchta kenja o'g'li tomonidan asos solingan Ovari, Kii va Mitodagi xonadonlar), *gosankyo* (*syogun* Yosimunening ikki o'g'li asos solgan Tayasu va Xitotsubasi xonadonlari) va

*syogun* Iesigening o‘g‘li tomonidan asos solingen Simidzu xonadoni kirardi [4]. To‘g‘ridan-to‘g‘ri merosxo‘r bo‘lman taqdirda, faqat ushbu uylarning vakili syogun bo‘lishi mumkin edi. Shunday qilib, syogun unvonini meros qilib olish huquqi faqat Tokugava avlodiga tegishli bo‘lib qoldi.

Tokugava davrida imperator xonadonining mavqeini, uning mamlakat siyosiy hayotidagi o‘rnini va syogunlar bilan o‘zaro munosabatlari xususiyatini tushunish muhim.

XII asr oxiridan 1868 yilgacha, ayrim tanaffuslar bilan, davlat hokimiyati syogunlar qo‘lida bo‘lib, ular imperator xonadonini “katta siyosat”dan chetlatganlar. Iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan harbiy zodagonlar (*buke*) siyosiy jihatdan ham hukmronlik qila boshlagan. Bu hokimiyat imperator saroyi tomonidan “seyi taysyogun” unvoni berilishi bilan amalda qonuniylashtirilgan.

Imperator hokimiyatining siyosiy ahamiyati pasayishi imperator xonadonining moddiy ahvoli yomonlashuvi bilan birga kechgan. Davlat miqyosidagi sintoistik marosimlarni o‘tkazish uchun ham mablag‘ yetishmagan.

1603 yilda *syogun* bo‘lgan Tokugava Ieyasu ham imperator Goyodzeydan *syogun* unvonini olgan. Dastlab Tokugavalar saroya ba’zi tashqi hurmat-ehtirom belgalarini ko‘rsatishgan. Biroq, syogun hokimiyati mustahkamlanib borgani sari, imperator saroyini syogunlikga to‘liq bo‘ysundirish siyosati kuchayib, Kioto bilan tobora kamroq hisoblashilgan [5].

Imperator saroyining byudjeti *syogun* tomonidan tasdiqlangan. Imperatorning shaxsiy mulki 10-30 ming *koku* miqdorida baholangan. Barcha saroy amaldorlari, shu jumladan imperator oilasi ham, 120-130 ming *koku* miqdorida ta’minot olgan [6]. Ularning moddiy ahvolini o‘rtacha daymyonikiga tenglashtirib bo‘lardi. Syogunlar imperator xonadonini saqlash uchun mo‘ljallangan mulklar va mablag‘lar hajmini goh kamaytirib, goh oshirib turganlar. Odatda, imperatorga sholi hosili past qishloqlar ajratilgan.

Imperator real siyosiy huquqlaridan butunlay mahrum bo‘lishiga qaramay, imperator saroyi davlat apparatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolavergan. Rasman imperator mamlakatning oliy hukmdori hisoblangan. “*Bansey ikkey*” (“asrlarga bir sulola”) tamoyilida imperator xonadonining uzluksiz hukmronligi mujassamlashgan. Yaponianing barcha hukmdorlari imperatorning diniy nufuzidan foydalanganlar. Syogunlar go‘yo imperatorдан mamlakatni boshqarish vakolatini olganday ko‘ringan. Imperatorning saroy lavozimlari, unvonlari va mukofotlarini taqsimlash huquqi saqlanib qolgan. Imperatorning mustaqilligi diniy marosimlarni o‘tkazishga ham taalluqli bo‘lgan. Biroq syogunlik bu ishlarga ham aralashgan. Jumladan, 1615 yilda saroy va saroy aslzodalarni (*kuge*) syogunlik nazorati ostiga olgan 17 moddali *bakufu* farmonlari qabul qilingan. Bu farmonlar imperator saroyi, oqsuyaklar va ruhoniylar hayotini tartibga solgan.

Imperatorlarning o‘g‘illari, valiahd shahzodalardan tashqari, odatda rohiblikka o‘tib, biror monastir yoki ibodatxonaga boshchilik qilganlar. Bu ikki sababga ko‘ra - imperator oilasining

kengayib ketmasligi va uning a'zolari mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok eta olmasligi uchun qilingan. Syogunlik taxt vorisligi masalalariga aralashgan, *daymyolarning Kiotoga tashrif buyurishini taqiqlab*, ularni imperator saroyidan ajratib qo'yishga intilgan.

*Bakufuning* Kiotodan Edoga ko'chishi *syogun* va imperator saroyi o'rtasidagi munosabatlarni shaxsiy mazmundan mahrum etib, sof rasmiy darajaga o'tkazgan. Tokugava Ieyasu davrida Kiotoda Nidzyo qal'asi qurilgan bo'lib, u yerda Kiotoga kelgan *syogunlar* to'xtagan, ammo imperator poytaxtiga faqat dastlabki uchta syogun tashrif buyurgan. 3-syogun Iemisu Kiotoga 3 marta - 1623, 1626 va 1634 yillarda borgan. Har safar unga katta harbiy kuchlar hamrohlik qilgan, 1634 yilda ularning soni 307 ming kishiga yetgan. Shubhasiz, bu imperator saroyini qo'rqtish maqsadidagi kuch namoyishi bo'lган.

Iemisudan keyin faqat so'nggi *syogun* Yosinobu Kiotoga tashrif buyurgan. Orada Nidzyo qal'asi imperator saroyini kuzatish vazifasini bajargan *syosidaylarning qarorgohiga* aylangan.

Tokugava davridagi Yaponiya *bakuxan* (ya'ni *bakufu+xan*) tizimi jamiyati deb ataladi. "Xan" atamasi odatda "knyazlik" yoki "feodal mulk" deb tarjima qilinadi. Bu tarjima, milliy tarix voqeliklarini ifodalovchi har qanday tarixiy atama singari shartli bo'lsa-da, tushunchaning mohiyatini aniq ochib beradi [7].

*Bakuxan* tizimi knyazliklarning markaziy hukumatga bo'ysunishini aks ettirgan va butun mamlakat miqyosida *bakufuning* hukmronlik mexanizmi bo'lган. Bakufu ma'muriy vazifadan tashqari harbiy vazifani ham bajaruvchi siyosiy organ sifatida faoliyat yuritgan. U 3-syogun Iemisu davrida mukammal ko'rinishga ega bo'lган.

Ma'muriy-xo'jalik birligi sifatida "xan" o'z hududiga va unda yashovchi aholiga ega bo'lган. Har bir knyazlikda o'z ma'muriyati va harbiy kuchlari mavjud edi. Harbiy noiblar (*syugo*) instituti bekor qilingandan so'ng knyazliklar o'z xo'jalik faoliyatida markaziy hukumatga nisbatan ma'lum darajada mustaqillikni saqlab qoldilar.

Knyazlik hududida yashovchi barcha dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, xizmatkorlar, mardikorlar va baliqchilar uchun haqiqiy hokimiyat knyazlik boshlig'i hisoblanib, ular kundalik hayotda uning ma'muriyati bilan muloqotda bo'lishgan.

XVII asr boshlarida *bakufu* va knyazliklarning ma'muriy tizimlari o'rtasidagi farqlar sezilarli edi, chunki *daymyolar* o'z oilaviy qonun-qoidalariga amal qilishardi. Biroq markaziy hukumat daymyo hokimiyatini cheklashga, soliq tizimi va ma'muriy vazifalarni bir xil qilishga intildi. Asta-sekin farqlar yo'qolib bordi va taxminan XVII asrning o'rtalariga kelib, knyazliklarning ma'muriy tuzilishi asosan kichik ko'rinishda *bakufu* tuzilishini takrorladi.

Har bir knyazlikda o'z ma'muriy boshqaruvi bo'lib, uni navbatma-navbat *daymyoning* bosh vassallari (*karo*) boshqarardi. Ular barcha siyosiy, ma'muriy, harbiy va iqtisodiy ishlarni yuritishgan, chunki knyazlik boshlig'i Edoda uzoq vaqt qolishga majbur bo'lган. U yo'qligida

*daymyoning o‘rnini bosadigan amaldor - dzoday* muhim rol o‘ynagan. Shtatda yana bir lavozim - *rusui* ham bo‘lgan. Bu amaldor Edoda *daymyoni* knyazlikka qaytganda o‘rnini bosgan.

Butun boshqaruv tizimi ustidan maxsus nazorat instituti - *metsuke* tashkil etilgan bo‘lib, u syogun amaldorlaridan iborat edi. Ular politsiya vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, feodallar, amaldorlar va muassasalar faoliyatini nazorat qilish vazifalarini ham o‘z zimmalariga olgandilar [8].

Tokugava davrining boshlarida *bakufu* qat’iy ijtimoiy farqlarni o‘rnatdi.

Samuraylar tabaqasi bir necha toifaga bo‘lingan: *daymyolar* va ularning vassallari bo‘lgan harbiy xizmatchi zodagonlar - samuraylar. Birinchi tabaqaning yuqori qatlami Kioto saroy zodagonlari bo‘lgan, lekin ular juda kambag‘al edilar.

Kiotoda taxminan 300 ta zodagon oila yashagan [9].

Samuraylar - knyaz vassallari (*xansi*) - zodagonligi va *daymyoga* yaqinligiga qarab, turli ma’muriy lavozimlarda va knyazlik qo‘sishlarida xizmat qilganlar. Ularning ko‘philigi natural maosh (*futimay*) - samuraylarning guruch ulushiga o‘tkazilgan bo‘lib, bu knyazlikdagi xizmatlari uchun mukofot hisoblangan. Samuraylarning oz qismi yer-mulkka ega bo‘lgan. Knyaz oilasining a’zolari odatda lavozimlarni egallamaganlar, balki faqat shaxsan o‘zlariga yoki butun knyazlikka tegishli bo‘lgan eng muhim masalalarni muhokama qilishda qatnashganlar [10].

Tokugava davrida *daymyolar* Tokugava xonadoni bilan qarindoshlik va siyosiy aloqalarining xususiyatiga ko‘ra bir necha toifaga bo‘lingan edi.

Alovida toifaga Tokugava xonadonining qarindoshlari hisoblangan knyazlar - *simpan daymyolar* kirgan. Bunday knyazlik urug‘lari soni 23 ta bo‘lgan [11].

*Fuday daymyolarga* Tokugava Ieyasuning ittifoqchi knyazlari va ularning avlodlari kirardi. Ular raqib tomonning musodara qilingan yerlari hisobidan saxiylik bilan taqdirlangandilar. Ko‘plab *fuday daymyolar* mag‘lub bo‘lgan dushmanlarning mulklarini qo‘lga kiritib, boyib ketishdi.

*Todzama daymyolar* ("chetdan kelgan daymyolar") Sekigaxara jangida Tokugava Ieyasuga qarshi chiqqan feodallarning avlodlari edi. Ular o‘z qudrati va boyligi bilan ko‘pincha ko‘plab *fuday daymyolardan* ustun turardilar.

Sekigaxara jangi go‘yo *daymyolar* o‘rtasida chegara o‘tkazib, ularning mamlakat siyosiy hayotidagi keyingi rolini belgilab berdi - *todzama daymyolar* hech qanday davlat lavozimlarini egallamas va odatda ularning faoliyati o‘z knyazliklari doirasi bilan cheklanar edi. Bundan tashqari, uzoq vaqt davomida hokimiyat ularga nisbatan iqtisodiy va harbiy qudratini zaiflashtiradigan turli choralar ko‘rib keldi.

Sekigaxara jangida hal qiluvchi g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, Tokugava Ieyasu davrida mamlakatdagi vaziyat mutlaqo barqaror emas edi. Uning barqarorligi *daymyolarning xatti-*

harakatlariga bog‘liq bo‘lib, ular istalgan paytda Ieyasuga nisbatan o‘z pozitsiyalarini o‘zgartirishlari mumkin edi. Shu sababli, u raqiblarini butunlay zaiflashtirish uchun bir qator choralar ko‘rdi. Ulardan biri 1615 yilda “Knyazlik kodeksi” (“*Buke syoxatto*”)ni qabul qilish edi.

13 banddan tashkil topgan ushbu hujjat asosan hukmron tabaqaga qaratilgan edi. U keyingi ikki yarim asr mobaynida mamlakatni boshqarishda amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tadi [12].

Biroq *daymyolar* ustidan nazorat qilishning eng asosiy va samarali chorasi garovga olish tizimi (*sankin kotay*) edi. Bu tizimni Toyotomi Xideyosi joriy qila boshlagan bo‘lsa-da, u 1634-1635 yillarda Tokugava Iemisu davrida to‘liq shakllantirildi. Dastlab bu tizim faqat *todzama daymyolarga* taalluqli edi, ammo 1642 yilda u barcha *daymyolarga* joriy etildi. Bu tizimning mohiyati shundan iborat ediki, *daymyolar* Edoda bir yil davomida xotini, farzandlari va vassallari bilan birga yashashi shart edi. Buning uchun *daymyolar* Edo qal’asi yaqinida hovlilar (*yasiki*) qurishar edi. Odatda, *daymyoning* bir nechta hovlisi bo‘lardi, chunki Edoda tez-tez yong‘inlar sodir bo‘lib turardi. *Daymyo* o‘z mulkiga qaytib kelganida, u oilasini Edoda garov sifatida goldirardi; bu uni ehtiyoitsiz xatti-harakatlardan saqlashning eng yaxshi usuli edi [13].

Syogunlik *daymyolarga* katta qurolli kuchlar saqlashga ruxsat bermasdi, ularning har biriga daromadlariga qarab o‘z “me’yori” belgilangan edi. Edoga borganda o‘q otar qurol olib ketishga ruxsat berilmasdi, maxsus amaldorlar qat’iy tekshiruv o‘tkazardi. Hukumat garovga olinganlarning Edodan qochib ketmasligini qattiq nazorat qilardi.

Ma’muriy tuzilish nuqtai nazaridan *bakufu* faoliyatida uch davrni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi davr (1603-1632 yy.) Tokugava Ieyasu va uning o‘g‘li Xidetada hukmronlik qilgan yillardan to Xidetadaning vafotiga qadar bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Bu davr shunisi bilan ajralib turadiki, davlat ishlari Ieyasu va Xidetadaga yaqin bo‘lgan, ular bilan ishonchli munosabatda bo‘lgan iste’dodli ma’murlar tomonidan boshqarilgan.

Ikkinci davrning boshlanishi (1633-1854 yy.) *bakufuning* ma’muriy tuzilishini tartibga solgan 3-syogun Iemitsu faoliyati bilan belgilandi. Keyingi barcha *syogunlar*, aslida, u yaratgan boshqaruv tizimi doirasida ish olib borishni davom ettirdilar.

Uchinchi davr (1855-1867 yy.) mamlakatning “ochilishi” bilan bog‘liq bo‘lib, bu paytda *bakufu* hokimiyati haqiqiy tashqi tahdidga duch keldi. Syogunlik tarkibida hatto tashqi ishlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘lim ham yo‘q edi. Ichki urushlar va tashqi tahdidlarsiz o‘tgan uzoq tinchlik davri harbiy san’atning rivojlanmasligiga olib keldi. Hukumat tez o‘zgarayotgan vaziyatlarga javob berish uchun harbiy va tashqi ishlar bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar tuzishga shoshildi, ammo vaqt allaqachon boy berilgan edi. Yaponiyaga inqirozli vaziyatni yengishga yordam bergen va uning turli sohalarda tez rivojlanishini ta’minlagan islohotlar syogunlik qulashidan keyin, Meydzi davrida (1868-1911 yy.) amalga oshirildi.

Tokugava davrida hukumat organlari tizimida o'zgarishlar sodir bo'ldi, ammo asosiy tuzilma o'zgarishsiz qoldi. XVII asr oxiridan boshlab hukumat ishlari tobora ko'proq fuqarolik sohasiga yo'naltirildi, amaldorlar orasida ajdodlari Tokugavalar xonadoni bilan bevosita aloqada bo'lmanan yangi shaxslar paydo bo'ldi.

Tokugava davrida tashkil etilgan hukumat apparati ancha katta edi. Unda lavozimlar va majburiyatlarning aniq taqsimoti mavjud bo'lib, uning faoliyat doirasiga davlat ishlari ham, syogun saroyiga xizmat ko'rsatish ham kirardi.

Davlat ishlarini oliy amaldorlar: regent, katta va kichik davlat maslahatchilar, idora boshliqlari olib borganlar. Ularga syogunning shaxsiy kotibi (*sobayonin*) ham katta ta'sir ko'rsatgan, u orqali amaldorlar o'z ma'ruzalarini mamlakatning oliy hukmdoriga yetkazganlar.

Oliy davlat lavozimi - bosh maslahatchi (*tayro*) doimiy bo'lmay, odatda yosh *syogun* davrida yoki favqulodda vaziyatlar munosabati bilan ta'sis etilardi. Bu lavozimga alohida ishonchga sazovor shaxslar tayinlanardi.

*Bakufu* mulklarida noiblar (*gunday* va *daykan*) hukmronlik qilardi. Ular mamlakatning eng muhim iqtisodiy va strategik hududlarini nazorat qilardi.

Bu noiblarga quyidagi vazifalar yuklatilgandi: siyosiy-ma'muriy - o'z tasarrufidagi hududni boshqarish; sud - aholining shikoyatlarini ko'rib chiqish; moliyaviy - soliqlarni yig'ish, soliq stavkalarini o'zgartirish va hokazo; xo'jalik - to'g'onlar, yo'llar, ko'priklarni ta'mirlash, sug'orish tizimlarini saqlash va shu kabilar; favqulodda - agar o'z hududlarida bo'lsa, *syogun* qo'shinlarini ta'minlash va qo'zg'olonlarni bostirish. Bu noiblarga g'alayonlarni bostirish uchun qo'shin yuborish zarur bo'lganda qo'shni feodallar bilan muzokaralar olib borishga ruxsat berilgandi. Bu esa hukumatning noiblarga bo'lgan katta ishonchidan dalolat berardi.

Hukumatga qarashli shaharlar, portlar va konlarda syogunning vakolatli amaldorlari (*bugyo*) faoliyat yuritardi. Kiotodagi imperator saroyida yangi maxsus noib (*syosiday*) lavozimi joriy etilgan bo'lib, uning vazifasiga imperator saroyi va kuge ustidan nazorat olib borish, imperatordan siyosiy kurashda foydalanishga bo'lgan har qanday urinishning oldini olish kirardi.

Tokugava sulolasining hokimiyati va nufuzini mustahkamlash maqsadida Ieyasuning nabirasi, 3-syogun Iemitsu, bobosini ulug'lash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. U Nikkoda sintistik ibodatxonada sig'inish ob'ekti bo'lgan va ilohiylikni o'zida mujassamlashtirgan "*sintay*" ("ilohiy mohiyat") joylashtirilishi kerak bo'lgan ziyoratgoh barpo etdi [14]. Nikkodagi bu ziyoratgoh Ieyasuning maqbarasiga aylandi va Tosyogu deb nomlandi.

1645 yilda imperator saroyi bu ziyoratgohni sintistik ibodatxonalar darajasiga ko'tardi. 1646 yildan boshlab Tosyogudagi har yilgi marosimlarga imperator saroyining maxsus vakili tashrif buyuradigan bo'ldi. Har yili Nikkoni *syogunlar*, ularning yaqinlari, daymyolar, samuraylar va mamlakatning turli hududlaridan kelgan oddiy fuqarolar ziyorat qilardi. *Syogunlarning*

farmoyishi bilan barcha viloyatlarda Tosyoguning filiallariga o‘xshash ibodatxonalar tashkil etilib, XIX asr o‘rtalariga kelib ularning soni 200 taga yetdi [15]. Ushbu choralar orqali syogunlik Ieyasuning Yaponiya tarixidagi alohida o‘rnini ta’kidlashga intildi.

**Adabiyotlar:**

1. История Японии. Т.І. С древнейших времен до 1868 г. / Отв. ред. А.Е. Жуков. - Москва: ИВ РАН, 1998, -С.419.
2. Лященко Н.Ф. Япония в эпоху Токугава. -Москва: Крафт+, 2010. -С.80.
3. Лященко Н.Ф. Япония в эпоху Токугава. -Москва: Крафт+, 2010. -С.80.
4. История Японии. Т.І. С древнейших времен до 1868 г. / Отв. ред. А.Е. Жуков. - Москва: ИВ РАН, 1998, -С.421.
5. Лященко Н.Ф. Япония в эпоху Токугава. –Москва: Крафт+, 2010. -С.85.
6. Гальперин А.Л. Очерки социально-политической истории Японии в период позднего феодализма. -Москва: Издательство восточной литературы, 1963. –С.83.
7. Лященко Н.Ф. Япония в эпоху Токугава. –Москва: Крафт+, 2010. -С.87.
8. История Востока. Т.ІІІ. Восток на рубеже средневековья и нового времени. XVI-XVIII вв. –Москва: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2000. -С.628.
9. Иващенко А.С. Основные черты социально-экономических и политических структур Японии в период сёгуната Токугава (1603-1867 гг.) // Вестник АГУ, Выпуск 2(1999), 2017. -С.46.
10. История Японии. Т.І. С древнейших времен до 1868 г. / Отв. ред. А.Е. Жуков. – Москва: ИВ РАН, 1998, -С.424.
11. Иващенко А.С. Основные черты социально-экономических и политических структур Японии в период сёгуната Токугава (1603-1867 гг.) // Вестник АГУ, Выпуск 2(1999), 2017. -С.46.
12. Прасол А.Ф. Объединение Японии. Токугава Иэясу. –Москва: ВКН, 2017. -С.450.
13. История Японии. Т.І. С древнейших времен до 1868 г. / Отв. ред. А.Е. Жуков. – Москва: ИВ РАН, 1998, -С.426.
14. Лященко Н.Ф. Япония в эпоху Токугава. –Москва: Крафт+, 2010. -С.81.
15. Светлов Г.Е. Путь богов. -Москва: Мысль, 1985. –С.90-92